



BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKILLANTIRISH

Majitova Gulchehra Abduvoit qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
Pedagogika fakultiteti 6-BTS -21ta'lim yo'nalishi
5-bosqich talabasi
+998907499411

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17332893>

Annotatsiya: Maqolada chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish, yozuv texnikasi, yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish, grafik malakadan to'g'ri foydalanish va qo'llash ta'lim sifati samaradorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri, yuksak natijalarga erishishning muhim jihatlari haqida va interfaol o'qitishning usullari haqida hamda psixik jarayonlar, ongning shakllanishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: yozuv texnikasi, pedagogik texnologiya, psixik jarayon, idrok etish, chiroyli yozuv.

Abstract: The article provides information on the development of beautiful writing skills, writing techniques, the correct use of writing instruments, the correct use and application of graphic skills, one of the main factors in ensuring the effectiveness of the quality of education, important aspects of achieving high results, and on interactive teaching methods, as well as on mental processes, the formation of consciousness.

Keywords: writing techniques, pedagogical technology, mental processes, perception, beautiful writing.

Аннотация: В статье представлена информация о развитии навыков красивого письма, технике письма, правильном использовании пишущих инструментов, правильном использовании и применении графических навыков, являющихся одним из основных факторов обеспечения эффективности качества образования, важных аспектах достижения высоких результатов, а также об интерактивных методах обучения, а также о мыслительных процессах, формировании сознания.

Ключевые слова: техника письма, педагогическая технология, мыслительные процессы, восприятие, красивое письмо.

Biz bilamizki, o'quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun, birinchi navbatda, diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar yaxshi ishlayotganiga guvoh bo'lamiz. Ba'zi bir o'quvchilarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday ekan biz pedagoglar eng avvalo o'quvchiga bilimni o'zlashtirish uchun o'quv materiallarini idrok etishni o'rgatishimiz talab qilinadi. Idrok etilishi lozim bo'lgan materialni tartibga solish, o'rganiladigan manba yoki uning tasvirini yaqqol ko'rsatish, bayonning ravshan va izchil bo'lishi, sinf doskasiga hamma o'quvchi ko'ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydigan dalillardir. Bola maktabga qadam qo'ymasdan oldinroq qo'lga qalam olib turli shakllarni chiza boshlaydi, ammo bu chiziqlar chiroyli yozuv talablariga to'g'ri kelmasa-da, ulardagi ayrim malakalarning (ruchka, qalam ushlar) shakllanishiga yordam beradi. Kichik yoshdagi bolalarning barmoq muskullari yaxshi rivojlanmaganligi uchun ularga surunkali yozdirib, mashq qildirish yozuvning sifatiga salbiy



ta'sir etadi. Inson tashqi olamdagi predmet va xodisalarni idrok etadi, shuningdek, o'z tanasidagi organlarning harakatini va ularning xolatini anglaydi. Idrok-tashqi nerv sistemasiga tasir etishi vatana harakatlarining ta'siri tufayli hosil bo'ladi. Inson ko'z, quloq apparatlari, teri sezgisi, muskul va ichki organik sezgilar yordamida rangni, muzika ohangini, og'irlikni, o'z harakat muvozanatini sezadi. Predmetlarning sezgi organlariga ta'siri natijasida miya po'stlog'ida yangi nerv bog'lanishlari tarzida iz paydo bo'ladi. Ana shu nerv bog'lanishlari idrok va sezgining fiziologik asosidir. Bu bog'lanishlar miyada mustahkamlanadi va saqlanib qoladi. Bu hol bizga idrok etgan va sezgan narsalarimizni xotiraga tushirishga imkon beradi. Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, qalam, bo'r) orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishga qarab qo'l harakatlari shunga moslashtiriladi. Chiroyli yozuvga o'rgatishda birinchi navbatda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish
2. Parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish.
3. Yozayotganda gavdani to'g'ri tutish va tirsaklarni to'g'ri harakat qildirish.
4. O'z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o'rgatish.
5. Tovushni bosma harfga, bosma harflarni esa yozma shaklga aylantirishga o'rgatish.
6. Harflar shaklini idrok etishga (yozuvni qayerdan boshlash, qayerda tugatish, o'ngga, chapga, burilish, bog'lash va h. k.) o'rgatish.

7. Harflarni bir-biriga bog'lab yozishga o'rgatish. 8. Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o'rgatish. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozuvga o'rgatishdan oldin quyidagi malakalarni berish lozim. O'quvchi o'zining dastlabki yozgan harf va elementlaridan ruhlanadi, o'ziga bo'lgan ishonch ortadi va qiyinroq harflarni yozishga qo'rqmaydi. Shuning uchun ham o'quvchilarda dastlabki yozuv malakalarini hosil qilishda ularning irodasini mustahkamlashga e'tibor berish lozim. Bunda o'qituvchining bolalar bemalol bajara oladigan topshiriqlar tanlashi kata rol o'ynaydi. Bu davrda bolalardagi psixologik xususiyatlarni ham tarbiyalash hamda ularning fiziologik o'sishlarini hisobga olish biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining muhim vazifamizdir. Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yordam beradi. Masalan, 1-sinfda dastlab to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri holatda qo'yish kabi talablar asosida so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so'zlarda harf unsurlari va ularning oralig'ini bir xil uzoqlikda chamalab yozish qoidalar kelib chiqadi. 2-sinfdan boshlab chiroyli yozuv malakasiga o'rgatishda yozuv texnikasiga oid bo'lgan kichik va bosh harflarni bir xil balandlikda chamalab yozish, 4-5 harfdan iborat so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozish, tez va toza yozish kabi qoidalar talab etiladi. Chiroyli yozuv deganda biz toza va aniq chiziqlar bo'yicha, husnixat namunalarda ko'rsatilganidek yozilgan yozuvni tushunamiz. Tez va ravon yozishga o'rgatish. Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda yozishga o'rgatish bilan birga tez va ravon tekis qilib yozish chiroyli yozuvning muhim talablaridan biridir. Chiroyli va tez yozishning asosiy siri uning bir xil o'lchamdagi ravon harakatidir. Bir maromda harakat qilib yozish, har bir harf va uning elementlari bir xil balandlikda va qiyalikda bo'lishi alohida go'zallik kashf etadi. Yozuvning tezligini oshirib borishda bolalarning qo'l harakati bir maromda bo'lishiga e'tibor berish, barmoqlarning charchab qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Boshlang'ich sinflarda bolalarga chiroyli yozuv malakasini singdirish har bir o'qituvchidan chidam va mahorat talab etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. G'ulomov, K. Tursunova, D. Po'latova "Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish" Uslubiy qo'llanma Toshkent "Turon Iqbol 2013.
2. G'ulomov M. "Husnixat" 1-sinflar uchun-T. :O'zbekiston 2002.
3. G'ulomov M. "Husnixat"2-sinflar uchun-T. :Cho'lpon 2003.
4. Melieva, D. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishning davlat miqyosidagi ahamiyati. Umumjahon ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(5), 1106-1108.
5. Qodirova, F. (2016). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'limda. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Xoliqberdiyev, K. (2012). Interfaol metodlar va ularni qo'llash. Toshkent: Fan va texnologiya.
7. Yo'ldoshev, J. G', & Usmonov, S. A. (2008). Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya.